



**Noto'g'ri hisobot
taqdim qilingan**

4-betda o'qing



**“Oqibatini o'ylamagan
ekanman...”**

6-betda o'qing

INSON va qonun



www.adolatmarkazi.uz



[telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/)



facebook.com/hudud24official/

2025-YIL
14-OKTABR
SESHANBA

№ 41
(1505)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



**Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!**



**Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!**

ZAMONAVIY TALABLAR VA XALQARO STANDARTLARGA MOS MASKAN



ADLIYA vaziri Akbar Toshqulov Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining yangi binosi va faoliyati bilan tanishish maqsadida mazkur institutga tashrif buyurdi. U yerda vazir malaka oshiruvchilarga yaratilgan sharoitlar, raqamli ta'lim infratuzilmasi, elektron kutubxona, shuningdek, xodimlar va tinglovchilar uchun mo'ljallangan qulay ish va dam olish xonalari bilan tanishdi.

Institut faoliyatiga bag'ishlangan taqdimotda yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'nalishida olib borilayotgan ishlar, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasidagi natijalar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, institut tomonidan ishlab chiqilgan yangi o'quv dasturlari, masofaviy o'qitish platformalari, hamda hududiy adliya organlari xodimlari uchun modul asosidagi malaka oshirish tizimi taqdim etildi. Ushbu tashabbuslar zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Muloqot jarayonida institut faoliyatini yanada takomillashtirish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish borasida takliflar bildirildi.

Vazir institut jamoasi bilan bo'lgan suhbat chog'ida yuridik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni rivojlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish hamda xalqaro tajriba asosida innovatsion kurslarni joriy etish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, institut faoliyatini yanada takomillashtirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha tegishli topshiriq va tavsiyalar berdi.

Nuriniso NURMUHAMMEDOVA,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
mas'ul xodimi

2 MUNOSABAT

ENG NUFUZLI MINBARDAN YANGRAGAN DA'VATLAR



Joriy yil 23-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasining yubiley – 80-sessiyasi umumsiyosiy munozaralari bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Davlatimiz rahbarining bu chiqishi nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaq va jahon miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etib, xalqaro hamjamiyat tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi – jahon siyosatining eng nufuzli minbarlaridan biridir. Shu bois, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaq va jahon miqyosida katta ahamiyat kasb etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezident o'z nutqida dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar – xavfsizlikka tahdidlar, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat inqirozi, migratsiya, terrorizm va ekstremizm xavfi kabi dolzarb masalalarga alohida to'xtaldi. Shu bilan birga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, demokratik yangilanishlar hamda Yangi O'zbekiston g'oyasining asosiy mazmuni – inson qadri yuksaltirishga qaratilgan siyosat keng jamoatchilikka yetkazildi.

Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida xalqaro institutlarning o'zni va rolining zaiflashayotgani, qarama-qarshilik va urushlar kuchayayotgani, texnologik hamda ijtimoiy tengsizlik ortib borayotganini ta'kidladi.

“Biz Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini olib bormoqdamiz. Buning uchun ortga qaytmas islohotlarimizni izchil davom ettiryapmiz. Ustuvor maqsadimiz – mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o'zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir”, dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Bu da'vat, avvalo, jahon hamjamiyati uchun umumiy yo'l xaritasi sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqiy davlat barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarga uyg'un holda namoyon bo'ldi.

Global tashabbuslar va mintaqaviy hamkorlik

O'zbekiston rahbari nutqida Markaziy Osiyo mintaqasining barqarorligi va taraqqiyoti masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Bu yondashuv mamlakatimiz tashqi siyosatining tinchliksevar, insonparvar va adolatparvar yo'nalishini yaqqol ifodalaydi.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan o'nlab taklif va tashabbuslar orasida tinchlikni mustahkamlash, adolatli va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, Orol dengizi qurishining oqibatlarini yumshatish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilish, turizmni rivojlantirish hamda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash kabi g'oyalar jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otdi.

Mamlakatimiz rahbarining nutqi O'zbekiston tashqi siyosatidagi izchillik va ochiqlik tamoyillarining ustuvorligini, yurtimizning xalqaro miqyosdagi mavqei va siyosiy qudratini yana bir bor namoyon etdi. Milliy manfaatlar bilan bir qatorda butun insoniyat taqdiriga daxldor masalalarni ko'tarib chiqish – yuksak siyosiy mas'uliyat va yetuk davlat rahbariga xos fazilatdir.

Prezident mamlakatlar o'rtasida raqamli rivojlanish hamda sun'iy intellektdan foydalanishda tengsizlikning oldini olish zarurligini ham alohida ta'kidladi. U sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat sohalarida sun'iy intellektning amaliy yechimlari va modellarini beg'araz almashishga qaratilgan xalqaro hamkorlik mexanizmini yaratishni taklif etdi.

Hamkorlik yangi bosqichda

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, millatlararo totuvlikni rivojlantirish, iqtisodiy taraqqiyotga erishish, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish va barqaror atrof-muhitni saqlash, shuningdek ta'lim, sog'liqni saqlash hamda madaniyat sohalarida BMT bilan o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xususan, 2017 va 2024-yillarda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning O'zbekistonga rasmiy tashrifi, shuningdek Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-, 75-, 76- va 78-sessiyalaridagi hamda 2021-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqlari ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamladi.

Bugungi kunda O'zbekiston va BMT hamkorligida 160 dan ortiq dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Oktabr oyida besh yilga mo'ljallangan yangi Hamkorlik dasturining imzolanishi kutilmoqda. Shu bilan birga, 30-oktabr – 13-noyabr kunlari Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkazildi.

Prezidentimiz nutqida keltirilgan raqamlar yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini yaqqol ifodalaydi. So'nggi yillarda kambag'allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqardi, maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizgacha, oliy ta'lim qamrovi esa 9 foizdan 42 foizgacha oshdi. Bu raqamlar ortida izchil, aniq maqsadli va strategik yondashuv mujassam.

Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar, eng avvalo, aholi uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim va kasb-hunar sohalariga investitsiya kiritishga qaratilgan.

BMT Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi – O'zbekistonning tinchliksevar, insonparvar va adolatparvar siyosatining amaliy ifodasi sifatida jahon hamjamiyati tomonidan yuksak baholandi. Unda ilgari surilgan tashabbuslar nafaqat global miqyosda, balki har bir davlat idorasi, jumladan, adliya tizimi uchun ham yo'l xaritasi vazifasini bajaradi.

Abdumutalib DADAJONOV,
Toshkent viloyat adliya
boshqarmasi boshlig'i



6-OKTABR



Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan hamda BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan amalga oshirilayotgan “O'zbekistonda davlat xizmatlari ko'rsatishni yanada takomillashtirish” loyihasi doirasida PR mutaxassislari uchun “Davlat xizmatlarini ilg'or axborot bilan yaqinlashtiramiz” mavzusidagi 3 kunlik trening tashkil etildi.



7-OKTABR



Adliya xodimlari uchun “Diplomatik protokol va etiket” bo'yicha o'quv seminar o'tkazildi. Tadbir davomida professor Komil Rashidov xalqaro huquq, diplomatik munosabatlar hamda O'zbekistonning tashqi siyosiy yo'nalishlarida huquqiy mexanizmlarning qo'llanilishi masalalari yuzasidan tinglovchilarga o'zining boy ilmiy va amaliy tajribasi asosida ma'ruza o'qidi.

Namangan shahar davlat xizmatlari markazi va Koson tuman davlat xizmatlari markazlarida “Turn-key” tamoyili asosida intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha master-klasslar tashkil etildi.



8-OKTABR



Adliya vazirligi tomonidan “Hunarmand” uyushmasida intellektual mulkka oid tadbir o'tkazildi. Tadbirda Hunarmandlarga O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 9-avgustdagi 1080-son qonuni mazmun-mohiyati tushuntirildi.



10-OKTABR



Joriy yilning 8-10-oktabr kunlari Minsk shahrida Belarus Respublikasining Milliy qonunchilik va huquqiy axborot markazi tomonidan tashkil etilgan VII Kuzgi ilmiy sessiya – xalqaro ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tdi. Tadbirda “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi delegatsiyasi ishtirok etdi.

Maxsus soliq rejimi joriy etiladi

2025-yil 4-oktabrda “Chet el fuqarolari uchun maxsus soliq rejimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko’ra, 2026-yil 1-yanvardan quyidagi shartlarga javob beradigan chet el fuqarolarining O’zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlarini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’idan ozod qilishni nazarda tutuvchi chet el fuqarolarining daromadlarini soliqa tortishning maxsus soliq rejimi joriy etiladi:

- ✓ 50 ming AQSh dollari miqdorida maxsus yig’im to’lash;
- ✓ O’zbekiston Respublikasidagi maxsus vakolatli tijorat bankida bank hisobvarag’ini yoki maxsus vakolatli kripto-birjada kripto-hamyon ochish.

Ketma-ket o’n ikki oylik davr davomida jami 30 kalendar kundan ko’proq O’zbekiston Respublikasida haqiqatda bo’lgan jismoniy shaxslar ular mulk yoki ijara huquqi asosida O’zbekiston Respublikasi hududida turar joy ko’chmas mulk obyektiga ega bo’lganda O’zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladi.

Yoshlarga subsidiya ajratiladi

Hukumat qarori bilan “Yoshlarning o’quv markazlarida xorijiy tillarni o’qish xarajatlari bir qismi uchun subsidiya ajratish tartibi to’g’risida”gi nizom tasdiqlandi.

Nizomga ko’ra, “2+6” dasturi belgilangan xorijiy tillarni bilish bo’yicha balning (darajaning) kamida minimal ko’rsatkichli sertifikatiga ega bo’lgan ariza beruvchi o’quv markazi tomonidan unga xorijiy tilni o’qitish xizmatini ko’rsatgani uchun dastlabki 2 oy uchun o’qish xarajatini o’z hisobidan to’laganda, keyingi 6 oygacha o’qish xarajati uchun Yoshlar

ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo’llab-quvvatlash jamg’armasiga ajratilgan mablag’lar doirasida subsidiya ajratilishini nazarda tutadi.

“2+6” dasturiga muvofiq, yoshlarga har oy yakuni bo’yicha quyidagi miqdorda subsidiya ajratiladi:

- ✓ Toshkent shahrida – BHMning 2 baravarigacha;
- ✓ Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida – BHMning 1,5 baravarigacha;
- ✓ tuman (shahar)larda – BHMning 1 baravarigacha.

Agentlik tomonidan 2025–2026-yillarda o’quv markazlarida xorijiy tillarni o’rganadigan 20 ming nafargacha, 2031-yilga qadar har yili 20 ming nafargacha yoshlarga o’qish xarajatlari uchun subsidiya ajratiladi.

Bunda tegishli yilda subsidiya ajratilgan yoshlar soni 20 ming nafardan oshgan taqdirda, o’sha yil uchun subsidiya ajratish keyingi yilga qadar to’xtatiladi.

Ariza beruvchilarning xorijiy tilni o’qitish xarajati uchun:

- ✓ o’quv markazlarining reytingini shakllantirish uchun belgilangan tartibda elektron platforma orqali ro’yxatdan o’tgan;
- ✓ ariza beruvchilarning o’quv mashg’ulotlarida qatnashganini kunlik elektron nazorat qilish imkonini beruvchi elektron platformaga integratsiya qilingan o’quv markazlariga “2+6” dasturi doirasida subsidiya ajratiladi.

Aholi va qishloq xo’jaligini ro’yxatga olishga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish tartibi belgilandi

Hukumat qarori bilan “O’zbekiston Respublikasida aholi

va qishloq xo’jaligini ro’yxatga olishga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish tartibi to’g’risida”gi nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom O’zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo’jaligini ro’yxatga olishga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish tartibini belgilaydi.

Ro’yxatga olish 2026-yilning 15-yanvaridan 28-fevraliga qadar o’tkaziladi va ro’yxatga olish boshlanishining aniq payti 2026-yil 15-yanvar soat 00:00 etib belgilanadi. Ro’yxatga olishni o’tkazish davomiyligi – 45 kun.

Respondentlarning shaxsga va qishloq xo’jaligi faoliyatiga doir ma’lumotlarini to’plash jarayonida ro’yxatga olish sanasidan keyingi o’zgarishlar hisobga olinmaydi.

Jumladan, ro’yxatga olish savolnoma shakllari va boshqa ro’yxatga olish hujjatlari 2026-yilning 15-yanvaridan keyin tug’ilgan bolalarga nisbatan to’ldirilmaydi, biroq ro’yxatga olish sanasidan keyin vafot etgan shaxslarga nisbatan to’ldiriladi.

Aholi soni va uning tarkibini hisoblashda:

- ✓ bir yildan ortiq muddatda mamlakat hududida bo’lmagan O’zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- ✓ O’zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar doimiy vakolatxonalarining, xalqaro, hukumatlararo tashkilotlar va chet davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining xodimlari bo’lgan chet el fuqarolari hamda ularning oila a’zolari;
- ✓ O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq diplomatik imtiyozlarga va immunitetga ega bo’lgan boshqa shaxslar hisobga olinmaydi.

Respondentlar o’zining (doimiy yoki vaqtincha) yashash joyi bo’yicha ro’yxatga olinadi. Bunda kunlik tungi dam olishining ko’proq qismini o’tkazadigan uy (hovli), kvartira, yashash uchun foydalanilayotgan boshqa turar joy yoki noturar joy bino yashash joyi hisoblanadi.

@huquqiyaxborot

BEPUL YURIDIK MASLAHATLAR DAVOM ETMOQDA



O’zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi Toshkent shahar filiali tomonidan “Fuqarolar qonun himoyasida” loyihasi doirasida “Har bir xonadonda bepul yuridik maslahat” shiori ostida Toshkent shahrining turli mahallalarida istiqomat qiluvchi fuqarolarga bepul yuridik maslahatlar berilmoqda.

Mazkur loyiha O’zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo’llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan bo’lib, Abdulla Qodiriy nomli hamda “Bekobod”, “Xurshid”, “Davlatobod”, “Navbahor”, “Katta Navbahor”, “Ko’tarma”, “Zarqaynar” va “Gavhar” mahallalarida uchrashuvlar o’tkazildi.

Tadbirlar davomida mahalla raislari hamrohligida ijtimoiy yordamga muhtoj, “Ayollar daftari”da turuvchi fuqarolar bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Ularning huquqiy savollariga Hakamlik sudi malakali sudyalari va xodimlari tomonidan bepul yuridik maslahatlar berildi.

Loyiha doirasida Hakamlik sudi qabulxonasi ham tashkil etilgan bo’lib, murojaatchilarga sudlarga da’vo arizalarini tayyorlash, ularni to’g’ri shakllantirish bo’yicha bepul yuridik yordamlar ko’rsatilmoqda.

Eslatib o’tamiz, bepul yuridik maslahat olish istagida bo’lgan fuqarolar uchun qabul jarayonlari davom etmoqda.

Shaxnoza RASULOVA,
O’zbekiston Hakamlik
sudlari assotsiatsiyasi
Toshkent shahar filiali kotibasi,
loyiha rahbari



**18 YOSHGACHA BO’LGAN
XODIMLARGA YILLIK MEHNAT
TA’ILI QANDAY BERILADI?**



4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

Adliya ko'magi bilan Muhammadyusuf TALABALAR safiga qo'shildi



KEYINGI vaqtda chekka hududlardagi aholining ko'pgina muammolari "fuqaro-mahalla-adliya" tizimi orqali ijobiy hal etilmoqda. Farg'ona viloyatining Toshloq tumanida istiqomat qiluvchi Muhammadyusuf Abdurahimov bu yil talabalikka tavsiya etilgan edi. Ammo u oilaviy sharoiti sabab shartnoma to'lovini to'lay olmadi.

Keyinchalik u o'zi yashayotgan mahallada o'tkazilgan huquqiy targ'ibot tadbirlarida Adliya vazirligining "fuqaro-mahalla-adliya" tizimi orqali murojaat yo'llash mumkinligidan xabar topib, elektron platforma orqali murojaat yo'lladi. Muhammadyusuf murojaat xatida o'qish uchun to'lov-shartnoma mablag'ini to'lashda moddiy qiyinchilikka duch kelgani, lekin oliy ma'lumotli bo'lish, oliygohda o'qish ishtiyoqi borligi haqida yozgan edi.

Ushbu murojaat Ijtimoiy himoya masalalari toifasiga kiritilib, Toshloq tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi mas'ullari hamda mahalla fuqarolar yig'ini

yoshlar yetakchisi Ahrorbek Akramov ishtirokida o'rganib chiqildi.

Masala atroflicha o'rganilgandan so'ng, fuqaroning muammosi ijobiy hal etildi. Eng muhimi, talaba yigitning shartnoma to'lovini amalga oshirishda unga amaliy yordam berildi. Bu bir qarashda oddiy ishdek ko'rinishi mumkin. Lekin adliya yordami bilan kelajagimiz egasi bo'lgan yoshlardan biri o'zining oydin yo'lini topdi, mustaqil hayotga qadam qo'ydi, talabalar safiga qo'shildi.

Hududiy adliya bo'limlari tomonidan aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyaga oid murojaatlari tizimli ravishda ko'rib chiqilmoqda. Natijada adliya tizimi xodimlarining huquqiy va amaliy yordami bilan mahallalardagi mas'ullar va davlat xizmatlari markazlari o'rtasidagi hamkorlik fuqarolar manfaati yo'lida ijobiy samara bermoqda.

Sherzod TOLIBOV,
Toshloq tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i

Noto'g'ri HISOBOT taqdim qilingan



TO'RTKO'L tuman adliya bo'limi tomonidan tadbirkor Rashid Mamiyevning tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi mas'ul shaxslarining xatti-harakatidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida R. Mamiyev 2022-yil 4-aprelda o'tkazilgan auksion savdosida 10 sotix yer maydonini yutib olgan va dehqon xo'jaligi tashkil etib, davlat ro'yxatidan o'tkazgani ma'lum bo'ldi.

Aniqlanishicha, tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi bo'limi tomonidan tasdiqlovchi hujjatlarsiz, tadbirkor tomonidan 2024-yilda 10 sotix yer maydoniga 10.73 ming m3 suv iste'mol qilingan, deb tuman soliq idorasiga noto'g'ri hisobot taqdim qilingan.

Natijada, soliq organlari tomonidan tasdiqlovchi hujjatlarsiz tadbirkorga noto'g'ri tarzda 1 million 72 ming 877 so'm miqdorida suv solig'i hisoblangan.

Soliq kodeksining 444-moddasiga ko'ra, soliq bazasi suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblari ko'rsatkichlari asosida aniqlanishi belgilangan.

Adliya bo'limi tomonidan tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasiga kiritilgan taqdimnomaga asosan, tadbirkorga noto'g'ri hisoblangan 1 million 72 ming 877 so'mlik suv solig'i tegishli tartibda 107 ming 287 so'mga kamaytirilishi ta'minlandi.

Davranbek ALLABERGENOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti

XARAJATLAR TO'LAB BERILMAGAN

Bo'zatov tuman adliya bo'limiga tumandagi 6-sonli umumta'lim maktabi direktori R. Utambetov hamda 7-sonli umumta'lim maktabi direktori G. Bekbosinovalarning 2024-yilgi xizmat safari xarajati puli to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib yo'llagan shikoyat arizasi ko'rib chiqildi.

O'rganish jarayonida haqiqatan ham tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan o'rganish kuniga qadar maktab direktorlari R. Utambetov va G. Bekbosinovalarga xizmat safari xarajati puli to'lab berilmagani aniqlandi.


Adliya bo'limi tomonidan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri nomiga kiritilgan taqdimnoma ijrosi ta'minlanib, R. Utambetovga 1 million 43 ming 862 so'm, G. Bekbosinovaga 1 million 283 ming 63 so'm miqdorida xizmat safari xarajati pullari undirib berilishi ta'minlandi.

Kazbek PALUANIYAZOV,
Bo'zatov tuman adliya
bo'limi boshlig'i

Bu o'zgarishlar o'quvchilarga ko'proq amaliy bilim va kasbiy yo'nalish berishga xizmat qilishi tabiiy. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "iqtisodiyotning rivojlanishi faqat ta'lim va muallimga bog'liq", shuning uchun bu model orqali yoshlarni sanoat va texnologiya talablariga moslashtirish rejalashtirilmoqda. 2025-2026-o'quv yillarida 8 ta yangi maxsus maktab qurilishi, shu jumladan, Toshkentdagi Mirzo Ulug'bek nomidagi maxsus maktabda Germaniyaning Myunxen texnika universiteti bilan hamkorlikda muhandislik dasturlari joriy etiladi. Bu dasturlar o'quvchilarga "kredit" tizimi orqali oliy ta'limning 2-kursiga o'tish imkonini beradi. Bundan tashqari, ingliz tili o'qitilishini 14 ta maktabda kengaytirish va san'at, dizayn, kinematografiya kabi yo'nalishlarni o'quv jarayoniga kiritish rejalashtirilmoqda. Bu takliflar, ayniqsa, qiz bolalarni ta'limga jalb qilishga qaratilgan bo'lib, Davlatimiz rahbarining "Bir qizni o'qitsak, butun oilani o'qitgan bo'lamiz" degan aqidalariga hamohangdir.

Shuningdek, oliy ta'lim va yoshlar bandligida innovatsion yondashuvlar, oliy ta'lim tizimida Prezident tomonidan taklif etilgan o'zgarishlar sanoat talablariga

BUGUN ta'limdagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimizning 2025-yil 9-sentabrdagi videosektor yig'ilishida e'lon qilgan eng muhim yangiliklardan biri – O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim tizimini 12 yillik modelga o'tkazish, ya'ni umumiy ta'lim tizimining qayta tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim endi uch bosqichga bo'linadi: birinchi bosqich – 1 yil tayyorgarlik va 4 yil boshlang'ich ta'lim (1–4-sinflar), ikkinchi bosqich – 5 yillik asosiy umumiy o'rta ta'lim (5–9-sinflar), uchinchi bosqich – 2 yillik to'liq umumiy o'rta ta'lim, jumladan, maktablar, akademik litseyalar, harbiy bilim yurtlari va texnikumlar.



moslashishga asoslangan. Yuqori baholar bilan maktabni bitirgan iqtidorli yoshlarni oliygohning 2-kursiga to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish, har bir viloyatda kamida bitta nodavlat universitet tashkil etish va raqobatni kuchaytirish kabi takliflar muhim o'rin tutadi.

Yoshlar bandligi masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda, 155 ming nafar yosh yigit-qizga 345 milliard so'mdan ortiq moliyaviy yordam ko'rsatildi. Chet tillarini o'rganishni rag'batlantirish bo'yicha 2 million nafar o'quvchi ingliz tili va boshqa tillarni o'rgangan,

TA'LIM UCH BOSQICHGA BO'LINADI

IELTS imtihonida yuqori ball olganlar soni 5 baravarga oshgan. 2026-yilda O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchi marta kimyo va informatika bo'yicha xalqaro olimpiadalarga mezbonlik qiladi. Bu nafaqat mamlakat obro'sini oshiradi, balki yoshlarni yangi marralarni egallashga ilhomlantiradi. Xulosa shuki, yurtimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini berishiga shubha yo'q.

Abror BERDIYEV,
Yakkasaroy tuman adliya
bo'limi bosh yuriskonsulti

DAVLAT XIZMATLARINI YORITISHDA JURNALIST MAS'ULIYATI

Har bir mavzuni yoritish OAV xodimidan o'ziga xos, alohida yondashuvni, mas'uliyatni talab qiladi. Har bir jurnalist yoki blogger mavzuga o'zining obyektividan qaraydi. Biroq barcha uchun zarur va bir xil yondashuv uslubi ham borki, buni hech bir qalamkash inkor eta olmaydi. Bu axborotni uzatishda xolislik va aniqlik bilan yondashuvdir. Aniqlik va xolislik bilan yoritilmagan axborot ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otadi, albatta.

OAV xodimlari axborot olish va uzatishda hamisha bir qadam oldinda yuradi. Mana shu ildamlilik ish jarayonida juda qo'l keladi. Jurnalist qaysi yoshda bo'lmasin, qaysi OAVda ishlamasin, hatto shaxsiy blog yuritib, erkin ijod qilsa ham, doimiy malakasini oshirib borishi, o'z ustida ishlashi zarur. Ayniqsa, axborot olishda va mavzuni yoritishda uning ish tajribasi, malakasi doimo qo'l keladi.



Keyingi yillarda aholining huquqiy madaniyati oshib bormoqda. Bu esa, huquqiy mavzularni yoritadigan jurnalistdan alohida malaka talab qiladi. Jurnalist yoki blogger mavzuni yoritir ekan, axborot uzatiladigan auditoriyaning huquqiy bilimi, saviyasini ham hisobga olishga majbur. Axborot hamma uchun tushunarli, ishonchli va to'g'ri ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak. Ana shunday mas'uliyatli va qiziq jarayonlarni kundalik vazifasiga aylantirgan bir guruh jurnalist va bloggerlar o'zaro hamfikir, hamsuhbat bo'lsa-chi?! Bu muloqot maydoni kelgusida yaxshi samara berishi aniq! Shularni hisobga olib, keyingi yillarda nafaqat aholining, balki, OAV xodimlarining ham huquqiy bilimlarini oshirishga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Adliya vazirligi bu masalaga doimiy e'tibor bilan qarab, yangi loyihalar ustida ishlamoqda. Vazirlik tashabbusi bilan yaqinda matbuot kotiblari ishtirokida 3 kunlik seminar-trening o'tkazilgan bo'lsa, bu safargi treningda yosh jurnalist va bloggerlar, huquqiy mavzuni yorituvchi OAV xodimlari jamlandi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan hamda BMT Taraqqiyot dasturi bilan birgalikda Adliya vazirligi hamkorligida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda davlat xizmatlari

ko'rsatishni yanada takomillashtirish" loyihasi asosida yana bir qiziqarli tadbir o'tkazildi.

Joriy yilning 9-10-oktabr kunlari Bo'stonliq tumanining so'lim go'shalaridan birida – "Olmos" konvension markazida huquqiy mavzularni yoritishda faol bo'lgan 20 dan ortiq jurnalist va bloggerlar ishtirokida o'tkazilgan seminar-treningda Adliya vazirligi bilan bevosita hamkorlikda ishlaydigan, davlat xizmatlari faoliyatini yoritish mavzusiga qiziqqan yosh jurnalistlar va bloggerlar faol ishtirok etishdi.



Mashg'ulotlarni mediasavodxonlik bo'yicha tajribali mutaxassislar – Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish markazining tajribali trenerlari Lola Islamova, Dilduza Mirzahmedovalar olib borishdi.

Trening ishtirokchilari har bir mashg'ulot mavzusi haqida o'zaro fikr almashib, intervyu olishda va mavzuni yoritishda bevosita ish jarayonida duch keladigan muammolarni ham o'rtaga tashlab, hayotiy va ish tajribalarini o'rtoqlashishdi. Mashg'ulotlar, ayniqsa, yosh jurnalistlar uchun qiziqarli va muzokaralarga boy bo'ldi.

Davlat xizmatlari faoliyatini yoritishda, shuningdek, davlat tashkilotlaridan axborot va ma'lumot olishdagi muammo va kamchiliklar ochiq aytiladi. Har bir jurnalist o'zining ish tajribasidan kelib chiqib, fikrlarini dadil aytdi, o'zaro fikr almashildi, hamkorlikda amalga oshirish mumkin bo'lgan yangi g'oyalar o'rtaga tashlandi.

Treningning birinchi kunida "Davlat xizmatlari qanday ishlaydi? Sohadagi islohotlar", "Jurnalistlarda davlat xizmatlarini yoritishda qanday muammolar va ehtiyojlar bor?", "Mavzuni yoritishda mas'uliyat va xolislik: sifatli jurnalistika mezonlari", "Axborot manbaalarini tahlil qilish: qanday tekshirish va taqdim etish kerak?", "Axborot so'rovi va ma'lumotlarni olish", "Intervyu mahorati" kabi qiziqarli mavzularda mashg'ulotlar o'tkazildi.

Bo'stonliq tuman davlat xizmatlari markazi xodimi, shu'ba boshlig'i Nafisa Nurmetova ishtirokchilarni davlat xizmatlari markazi faoliyati bilan yaqindan tanishtirib, aholi bilan muloqot tajribalarini o'rtoqlashdi.



Ishtirokchilar aholi tomonidan eng kam foydalanilayotgan davlat xizmatlarini tanlab olib, guruhlariga bo'linib, ularning har birini alohida tahlil qilishdi.

Trening mashg'ulotlari interaktiv o'yinlar bilan yanada qiziqarli o'tdi. Ayniqsa, treningning ikkinchi kuni har bir ishtirokchi uchun yanada sermazmun bo'ldi. "Mediada sun'iy intellekt: ma'lumotlarni tekshirish, tahlil qilish va kontent yaratishdagi foydali vositalar", "Davlat xizmatlari markazlarida reportaj tayyorlash qoidolari", "Kontent formatiga yangicha yondashuv: infografika, ekspleyner", "Mobil telefon orqali professional foto va videolar tayyorlash: eng yaxshi tajribalar", "Guruhlarda ishlash: davlat xizmatlari markazidan kichik kontent loyihasi tayyorlash (reportaj, video, ekspleyner, post va boshqalar)" mavzularida master klass va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Ikki kun davom etgan trening mashg'ulotlari davomida ishtirokchilar davlat xizmatlari islohotlarini xolis va ijodiy yoritish, zamonaviy texnologiyalardan, Sun'iy intellekt (AI) va raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari, ayniqsa, faktcheking va boshqa axborotni efirga, omma-ga uzatishda qo'llanilishi kerak bo'lgan zamonaviy ish uslublarini o'rganib, tahlil qilishdi va amaliyotda qo'llab ko'rishdi.

Eng muhimi, trening moderatorlari ishtirokchilarni ijodiy hamkorlikka chorlagani bo'ldi. Trening qatnashchilari yangi loyihalar bilan ham tanishishdi va o'zaro muloqot auditoriyasini kengaytirishdi.




Treningda ishtirok etgan OAV xodimlari va bloggerlarga tashkilotchilar tomonidan sertifikatlar topshirildi.

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
"Inson va qonun" muxbiri



**BUT BO'LMAGAN TOVARNI TOPSHIRISH
OQIBATLARI YUZAGA KELGANDA HOLAT
QANDAY TARTIBGA SOLINADI?**



6 SUD ZALIDAN

BUGUNGI kunda jahon hamjamiyati oldida global ekologik muammolarni hal etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sayyoramizda sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar – suv toshqinlari, o'rmon yong'inlari, chang-bo'ronlar, suv sathining ko'tarilishi, ozon qatlamining yemirilishi, chuchuk suv manbalari kamayishi va iqlim o'zgarishlari insoniyat ekologik xavf ostida ekanini ko'rsatib turibdi.

Bunday sharoitda tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy vazifa hamdir. Chunki atrof-muhitga zarar yetkazish qonun oldida javobgarlikni yuzaga keltiradi. Milliy qonunchiligimizda ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65-moddasi yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga keltirish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun qat'iy javobgarlikni nazarda tutadi.

Yerdan maqsadsiz foydalanish yoki tuproq unumdorligini pasaytiradigan harakatlar sodir etgan shaxslarga BHMning 7 baravaridan 10 baravarigacha jarima solinadi. Mansabdor shaxs-



larga esa BHMning 15–20 baravarigacha jarima belgilanadi. Agar yerlarning sug'oriladigan maydonlarini yaxshilash va muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlar bajarilmasa, yer maydoniga qarab jarima miqdori oshiriladi. Yerlarni chiqindilar, kimyoviy yoki radioaktiv moddalar bilan ifloslantirish BHMning 10–20 baravarigacha jarima solishga sabab bo'ladi.

Tabiat muhofazasida hayvonlarga nisbatan munosabat ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning

111-moddasida hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lish holatlariga javobgarlik belgilangan.

Hayvonlarni qiynash yoki azob berish holatlari uchun BHMning 3–5 baravari miqdorida jarima solinadi. Agar bu huquqbuzarlik takrorlansa, voyaga yetmaganlar hozirligida sodir etilsa yoki hayvonning o'lishiga sabab bo'lsa, BHMning 5–10 baravarigacha jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi tayinlanadi.

Ma'lumot uchun 2020–2024-yillarda ushbu modda bilan respublika bo'yicha 397 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Ulardan 363 nafariga jarima, 34 nafariga esa ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilgan. Joriy yilning birinchi yarmida esa 34 nafar shaxsga nisbatan ushbu huquqbuzarlik uchun chora ko'rilgan.

Xulosa qilib aytganda, yerdan xo'jasizlarcha foydalanish, tabiatga zarar yetkazish yoki hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun belgilangan jazolar ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiatni muhofaza qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Akbar AMINOV,
Xorazm viloyat sudi sudyasi

“OQIBATINI O'YLAMAGAN EKANMAN...”



HAMMAMIZ yo'lovchimiz. Kunda yoki kunora transportning u yoki bu turidan foydalanamiz. O'tgan yilning 4-sentabr kuni soat 13:30 larda yo'lovchi Y.M. 18-sonli avtobus saroyiga qarashli 11-yo'nalishdagi avtobusga chiqadi. Manziliga yetgach, sumkasini avtobus o'rindig'ida unutib qoldiradi. Birozdan so'ng chiptachi o'sha qizning sumkasini ochib qarasa ichida 1 million 600 ming so'm pul borligini ko'radi. Haydovchi va chiptachi sumkadagi pulni teng bo'lib olishadi. To'g'ri, ular sumkani egasiga qaytarib berishgan, ammo pulni esa olmaganmiz, deb yolg'on gapirishgan. Biroq olib borilgan surishtiruv va tergov jarayonida haydovchi va chiptachining oldindan til biriktirib, ayollar sumkasidan pullarni olgan fosh etildi.

– 10 yildan buyon avtobus haydovchisi bo'lib ishlayman, – dedi sudda sudlanuvchi J.J. – O'sha kuni tushlik mahali chiptachi E.S. menga qo'ng'iroq qildi. Avtobus harakatlanayotgan vaqtida telefonda gaplashish mumkin emasligi uchun javob berolmadim. Bekat oxiriga borganimda chiptachi ayollar sumkasini avtobusdan olib

tushdi. Sumka ichida 1 million 600 ming so'm pul bor ekan. Biz pullarni bo'lib oldik. Oqibatini o'ylamagan ekanman. Qilgan ishimdan pushaymonman. Yetkazilgan moddiy zararni to'liq qopladik. Oilaviy sharoitimni hisobga olib, yengillik berishlaringizni so'rayman.

Sudda sudlanuvchi chiptachi ham aybiga to'liq iqrorlik bildirib kechirim so'radi.

Sud ushbu jinoyat ishi yuzasidan to'plangan hujjatlarni tekshirib, holatga qonuniy baho berdi. Sudning hukmi bilan ularning har biriga ish haqining 10 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 2 yil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinladi.

Agarda haydovchi va chiptachi unutib qoldirilgan ayollar sumkasidagi pulni o'g'irlamasdan egasiga qaytarganida edi, savobli ish qilgan va rahmat eshitgan bo'lardi. Afsuski, ular o'g'irlik qilishdi. Har qanday o'g'irlik esa jinoyatdir. O'z nafsini o'ylab, o'z hamyoniga zarar keltirgan haydovchi va chiptachining qilmishi, o'z umriga sudlangan degan dog' tushirgani boshqalarga saboq bo'lsa ajabmas.

Alisher JALILOV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Yakkasaroy tuman sudi raisi

SO'RAGAN EDINGIZ



– XODIMNI ishdan bo'shatishda kasaba uyushmasining xulosasini olish tartibi qanday?

O'N KUNDA


XULOSA BERILISHI KERAK

– Mehnat kodeksining 164-moddasida xodimlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qoida bor. Agar jamoa kelishuvida yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasining oldindan roziligini olish nazarda tutilgan bo'lsa, mehnat shartnomasini bunday roziliksiz bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Kasaba uyushmasining xulosasini, ya'ni roziligini olish uchun unga taqdimnoma kiritiladi, kasaba uyushmasi 10 kunda uni ko'rib chiqib, xulosa berishi kerak.

Mazkur xulosa 1 oy amal qiladi, 1 oydan keyin bu xulosa bilan xodimni ishdan bo'shatib bo'lmaydi. O'z vaqtida xulosa berilmasa, xodim kasaba uyushmasi roziligsiz ishdan bo'shatilishi mumkin.

Savolga Buvayda tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti
Orifjon XUDOYNAZAROV
javob berdi



**ISH VAQTIDAN TASHQARI
ISH VAQTI QANDAY
TARTIBDA BELGILANADI?**




Unga ko'ra, sudlar faoliyatiga "Raqamli sud" konsepsiyasini joriy etish: sudga ariza berishdan oldin sun'iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, murojaatlarni sudga elektron shaklda yuborish, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga tashrif buyurmay, sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etish, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir barcha materiallar bilan elektron shaklda tanishish, ijro varaqalarini avtomatik ravishda ijroga yuborish, sun'iy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalarini real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlash, sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirish imkonini beradi.

Sud sohasini raqamlashtirishning quyidagi istiqboldagi rejalari belgilandi:

- ✓ 2025–2027-yillarga mo'ljallangan sud sohasini raqamlashtirish va odil sudlov jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dasturini tasdiqlash;
- ✓ 2025-yil 1-dekabrden boshlab fuqarolar, advokatlar, yuristlar, sudyalardan tashqari normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish platformasini ishga tushirish;
- ✓ 2025-yil yakuniga qadar sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash maxsus axborot dasturini yaratish;
- ✓ 2026-yil 1-yanvardan boshlab "my.sud.uz" interaktiv xizmatlar portalida fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish modulini joriy etish, bunda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan virtual maslahatchini yaratish, huquqiy murojaatlarga javob berish hamda sud ma'lumotlarini avtomatik yetkazish;

☐ **PREZIDENTNING 2025-yil 21-avgustdagi "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslari yaratilishini nazarda tutuvchi normalar qabul qilindi.**



- ✓ 2026-yil 1-martdan boshlab fuqarolik, ma'muriy, iqtisodiy va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki sud ma'lumotlarini fuqarolarga YIDXP orqali olish imkoniyatini yaratish;

- ✓ 2026-yil yakuniga qadar fuqarolarga odil sudlovga erishishda qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida 5 ta yangi interaktiv xizmatlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, sudning axborot tizimidagi "Shaxsiy kabinet" platformasining foydalanuvchilar uchun yanada qulay bo'lgan yangi versiyasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

2025–2027-yillarga mo'ljallangan sud sohasini raqamlashtirish va odil sudlov jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda:

- ✓ 2025-yil yakuniga qadar, tajriba tariqasida Toshkent shahrida "Raqamli sud" konsepsiyasi asosida iqtisodiy,

fuqarolik va ma'muriy nizolarni ko'rishga mo'ljallangan sud majlisi zallarini tashkil etish;

- ✓ fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish modulini joriy etish;

- ✓ sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash maxsus axborot dasturini ishga tushirish;

- ✓ fuqarolar, advokatlar, amaliyotchi yuristlar, sudyalardan tashqari normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish platformasini yaratish;

- ✓ "Mening sudga taalluqliligim" interaktiv xizmatini joriy etish;

- ✓ "Mening suddagi ishim" interaktiv xizmatini joriy etish, (bunda shaxsga tegishli bo'lgan barcha yo'nalishdagi sud ishlari bilan tanishish imkoniyatini yaratish);

- ✓ "Sud hujjatlaridan nusxa olish" interaktiv xizmatini joriy etish;

- ✓ sun'iy intellekt yordamida sud xarajatlarni hisoblash imkoniyatini yaratish;

- ✓ fuqarolik, ma'muriy, iqtisodiy va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki sud ma'lumotlarini my.gov.uz portalida olish imkoniyatini yaratish;

- ✓ sudning axborot tizimida ochilgan "Shaxsiy kabinet" platformasining fuqarolar va advokatlar uchun yanada qulay hamda foydali bo'lgan yangi versiyasini ishlab chiqish;

- ✓ sud ishtirok etuvchi shaxslardan ortiqcha ma'lumotlar talab etilishiga chek qo'yish maqsadida "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida mavjud ma'lumotlarni sudlarning axborot tizimlari bilan to'liq integratsiya qilish;

- ✓ sud majlisi ishtirokchilari sud jarayonlarida hozir bo'lganini tasdiqlash jarayonini to'liq raqamli shaklga o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda sud majlisi ishtirokchilari sud tarkibiga va sudya tomonidan boshqa tushuntirishlarga roziligini barmoq skaneri yordamida tasdiqlash imkoniyatini yaratish orqali sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirishga qaratilgan islohotlar sifatida qaraladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu islohotlar fuqarolar va tadbirkorlarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirishga, fuqarolar va tadbirkorlarning buzilgan huquq va erkinliklari, shuningdek, qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dadaxon XUDOYNAZAROV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti kafedra mudiri
o'rinbosari

KOGNITIV KOMPETENTLIK NIMA?

☐ **BUGUNGI tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimining asosiy maqsadi – o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, muammolarga ijodiy yondashish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan kognitiv kompetentlik tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.**

Kognitiv kompetentlik nima? "Kognitiv" atamasi lotin tilidagi "cognoscere" so'zidan olingan bo'lib, "bilish", "anglash", "idrok etish" ma'nolarini bildiradi. Kognitiv kompetentlik – bu insonning bilimni o'zlashtirish, uni tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish hamda yangi vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa olish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda, bu – o'rganilgan bilimni nafaqat eslab qolish,

balki uni amaliyotda qo'llash va yangilik yaratish qobiliyati sanaladi.

Zamonaviy o'qituvchi endilikda bilim manbai emas, balki yo'lbo'shchi, motivator va fikrlash jarayonini tashkil etuvchi shaxsga aylanmoqda. Uning vazifasi o'quvchilarni mustaqil izlanishga, savol berishga va tahliliy fikrlashga o'rgatishdir. Shu bois kognitiv kompetentlik o'qituvchi faoliyatining markazida turadi.

O'qituvchining kognitiv kompetentligini quyidagi jihatlarda namoyon bo'lishini ko'rish mumkin:

- ✓ bilimlarni samarali yetkazish: o'qituvchi o'quvchilar yoshiga mos, sodda va tushunarli uslubda bilim berishi kerak;
- ✓ muammoli vaziyat yaratish: o'quvchilarni savol berishga, izlanishga va javob topishga undash;
- ✓ tahlil va xulosa chiqarishga yo'naltirish: o'quvchilarda sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunish ko'nikmasini shakllantirish;
- ✓ ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlash: har bir masalaga yangicha qarashni, ijodkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish;

- ✓ axborotni boshqarish: zamonaviy texnologiyalar yordamida kerakli ma'lumotni topish, saralash va uni ta'lim jarayonida samarali qo'llash.

Kognitiv kompetentlik o'qituvchiga darsni yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ta'lim jarayonini faqat yodlashga emas, balki tahlil hamda amaliyotga asoslash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu kompetentlik o'qituvchining kasbiy mahorati va raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv kompetentlik zamonaviy o'qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir. Chunki bugungi kunda faqat bilimning o'zi kifoya emas, uni to'g'ri ishlata bilish, yangilik yaratishda qo'llash va o'quvchilarga shunday yondashuvni o'rgatish zarur. O'qituvchi qanchalik kognitiv kompetent bo'lsa, uning darslari shunchalik samarali, o'quvchilari esa mustaqil, izlanuvchan va ijodkor bo'ladi.

O'g'iloy BOZOROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi

8 ADLIYA FAXRIYLARI

Sharafli mehnat KISHILARI



Mehnat insonni ulug'laydi, degan so'zda ajib hikmat bor. El-yurt o'rtasida hurmat va e'tibor qozonish halol mehnatga bog'liq. Umrini el-yurt xizmatiga bag'ishlagan zamondoshlarimizning kasbi-kori har xil, ammo maqsadi bir – Vatanga xizmat qilish, yaxshi nom qoldirish. Bugun sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz ana shunday yaxshi maqsadlarga erishgan, mehnatidan sharaf topgan insonlar.

Safarboy akaning ibratli umri

Safarboy Avezov 1955-yilda Xiva tumanida tavallud topgan. 1974-1979-yillarda Toshkent Qishloq xo'jaligi institutida tahsil olgan. 1979-2005-yillarda Xiva pilla quritish korxonasida katta agronom, pillaxona mudiri, "Xiva pilla" ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati raisi vazifalarida ishlagan. Ipakchilik sanoatini rivojlantirishga o'zining munosib hissasini qo'shgan. 2005-yil 8-avgustdan buyon Xiva shahar Davlat arxivi direktori lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda.

Safarboy aka o'zining funksional vazifalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining davlatga tegishli qismiga kiruvchi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar bilan boyitib borilishiga, arxivda saqlanayotgan hujjatlarni ilmiy – amaliy qimmatini ekspertiza qilish hamda hisobini yuritishga mas'ulligini unutmaydi. S. Avezov mahalliy matbuot, radio va televideniya orqali targ'ibot qilish, hujjatlar saqlanayotgan binolardan foydalanishni belgilangan muddatlarda

joriy va kapital ta'mirlash ishlarini tashkil qilish, arxivlar ishi amaliyotiga hujjatlarni saqlash, ta'mirlash, nusxa olish, ulardan foydalanish va muhofaza qilishning oqilona tizimlari va usullarini joriy qilish, davlat arxivi huzuridagi yig'ilishlarni boshqarish mas'uliyatini zimmasiga olgan fidoyi rahbar.

U Xiva shahar va Ko'shko'pir tuman hokimligi huzuridagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxiviga ilmiy – uslubiy jihatdan rahbarlik qilish bilan bir qatorda, arxiv ishi tizimi qanday yo'lga qo'yilgani, hujjatlarni qimmatligini aniqlash borasida idoraviy arxivlarga yaqindan yordam ko'rsatib kelmoqda.

Safarboy Avezov o'zinig arxiv sohasidagi 20 yillik ish faoliyati davomida tashkilotchiligi, tashabbuskorligi, katta-yu kichikka birdek izzat-hurmatdaligi, ibratli hayot yo'li va o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarishi bilan jamoada katta obro' qozongan. Bilim va tajribasini hamkasblariga, yosh xodimlarga o'rgatishga odatlangan, jamoat ishlarida faol, to'g'ri so'z, talabchan rahbar. Uch nafar farzandni elga munosib qilib tarbiyalagan, nabiralari quvonchi nasib etgan baxtli oila boshlig'i.

Umringizning har bir lahzasi mazmunli o'tsin, qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, Safarboy aka deymiz!

Qat'iyatli va tajribali huquqshunos

Aysara Musayeva 1950-yil Qorako'l tumanida tug'ilgan. Xarkov yuridik institutida tahsil olgan. Oliy ta'lim olguniga qadar Olot tuman matlubot jamiyatida oddiy

ishchi bo'lib ishlagan. Xarkovdan qaytgach, Qarshi shahar prokuraturasida stajyor, oradan bir yil o'tib, Qarshi shahar prokurorining yordamchisi, keyinchalik Qashqadaryo viloyat prokuraturasida prokuror yordamchisi vazifasida ish yuritgan.

1978-yildan 1982-yilgacha Koson tuman xalq sudining raisi lavozimiga tayinlangan. Qator yillar Qarshi shahar va Qarshi tuman xalq sudlariga raislik qilgan. Salkam 20 yil davomida sud raisi sifatida og'ir va murakkab davrda faoliyat yuritgan qat'iyatli va tajribali huquqshunos Aysara Musayeva adolat va haqiqatni qaror toptirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida ziddiyatli vaziyatlarga duch kelgan, turli chig'iriqlardan o'tgan zabardast ayol. Har qanday sharoitda ham xalq manfaatini ko'zlab ish ko'rishga, nohaqliklarga murosasiz bo'lishga kuch va iroda topgan qahramonimiz mustaqil davlatimiz qonunlarining xalqchil tarzda yangilanishiga ham o'z hissasini qo'shgan.

Aysara opaning notariuslik faoliyati ham qariyb 20 yildan iborat. Qarshi shahar 2-son notarial idorasida notarius, katta notarius bo'lib xalqqa xizmat qilgan A. Musayeva Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius sifatida ham uzoq yillar faoliyat yuritdi. Hamisha odamlar orasida bo'ldi, fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatishni o'zining burchi deb bildi. Oilada saodatli ayol, jamiyatda fidoyi huquq posboni, jamoada benazir ustoz maqomiga erishgan Aysara Musayevani tabarruk yoshi bilan qutlaymiz!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

HAYOT MANZARALARI

"SEN SHOXIDA YURSANG, BIZ BARGIDA YURAMIZ"



Bir amerikalik advokat 24 dona qimmatbaho sigara sotib oladi va ularni yong'indan sug'urtalaydi. Bir oy ichida sigaralarni chekib tugatadida, sug'urta

kompaniyasiga murojaat qiladi:

– Sigaralarim "kichik yong'inlar"da kuyib kul bo'ldi, sug'urta to'lov pulini bering, – deydi.

Sug'urta kompaniyasi rahbari:

– Axir, bu yong'in emas, shunchaki sigaralarni o'zingiz chekkansiz-ku! – deydi.

Advokat sug'urta kompaniyasini sudga beradi.

Sudya "Shartnomada "yong'in" so'zi aniq ta'riflanmagan, shu bois sug'urta kompaniyasi to'lov qilsin", deb hukm chiqaradi. Kompaniya 15 ming dollar to'laydi. Biroq advokat sug'urta kompaniyasi chekini pulga aylantirganidan keyin, uni 24 marta "qasddan yong'in chiqarishda" ayblashadi va hisob raqamini muzlatishadi. Unga sug'urtalangan mulkka nisbatan 24 marta qasddan yong'in uyushtirganlik aybi qo'yiladi. Eng qizig'i, avvalgi sudda advokatning o'zi tomonidan berilgan ko'rsatmalar va "mini-yong'inlar" haqidagi bayonotlar unga qarshi dalil sifatida ishlatiladi.

Natijada advokat sug'urtalangan mulkni qasddan yoqqani uchun aybdor deb topiladi va 24 oyga qamoq jazosi hamda 24 ming dollar jarimaga hukm qilinadi.

Jaloliddin SAFOYEV tarjimai



Bugun uning tug'ilgan kuni edi. Ertalab eri indamay ishga ketdi. Kun bo'yi qo'ng'irog'ini kutdi. Yo'q. Ishdan qaytdi hamki, undan sado yo'q. Ayol xonasiga kirib yig'ladi. "Bir og'iz so'z bilan tabriklab qo'ysa, nima qilarkin?.. Mayli, gul yoki qimmatbaho sovg'a qilmasin, bir og'izgina..."

Shu payt eri chaqirib qoldi. Ayol umid bilan uning yoniga chiqdi.

Eri esa:

– Mana bu ko'ylakni yuvib qo'y, ertaga boshliqning xotinini tug'ilgan kuni, o'sha joyga kiyanman! – dedi.

Hurmatoy AZIMShER qizi

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Mahmud Istamov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Alisher Karimov
Hayotjon Klichev
Sherzod Abdullayev
Yorбек Iskandarov

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Gulbahor Ortiqxo'jayeva

Sahifalovchi-dizayner
Ma'ruf Abdug'aniyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "MATRIX" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram 7-tor ko'chasi, 52-uy.

Tiraj: – 1 352
Buyurtma – 1 052

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 18:30

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5